



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 24-29 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI VA UNING SHO'BA KORXONALARI UCHUN MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAYYORLASH USULI HAQIDA



Mardanov Zafar Xurramovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida buxgalteriya xisobi va hisobotida, sho'ba korxonalarini uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о международных стандартах финансовой отчетности для дочерних компаний и бухгалтерского учета в коммерческих банках.

Abstract: The article provides information on international standards of financial reporting for subsidiaries and accounting in commercial banks.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, sho'ba, foyda, daromad, konsolidasiyalashgan:

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности, дочернее предприятие, прибыль, доходы, консолидированные:

Key words: International standards of financial reporting, subsidiary, profit, income, consolidated:

1.Kirish. 2020 yil 24 fevralda respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXSga) o'tish solnomasining yangi sahifasini ochib beradigan Prezidentning "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori e'lon qilindi[1].

Ayni paytda MHXSga o'tish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishiga qaramasdan, u bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimining mavjud emasligi sababli, buxgalteriya xisobi BHMMga muvofiq yuritilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi moliyaviy hisobotni tayyorlash va e'lon qilish shunchaki rasmiyatchilik xususiyatiga ega bo'lib axborot sifatini kamaytiradi va foydalanuvchilarni xalqaro talablarga mos keladigan ishonchli axborotlar bilan ta'minlash imkoniyatini cheklaydi.

Xalqaro standartlarga o'tish buxgalteriya xisobining jahon amaliyotidagi global tendensiyalar bilan bog'liq. Xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot xalqaro biznes tili sifatida tan olinadi. MHXS moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lgan ma'lumotlardan shakllangan biznes tilida muloqot qilish imkoniyatini yaratadi.

Moliyaviy hisobot Bu bank guruhi moliyaviy hisoboti tayyorlanishi milliy valyuta soʻmda, ming soʻm hisobida amalga oshiriladi. Guruh buxgalteriya xisobi va hisobotini amalga oshirilishi tarixiy qiymat va bozor bahosida baholanishi orqali amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili; Bozor bahosi orqali baholangan moliyaviy instrumentlar foyda va zarar yoki boshqa jamlanma daromadlarda aks ettiriladi.[3]

Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarga quyidagilar kiradi:

1) konsolidasiyalashgan moliyaviy holat toʻgʻrisidagi (yoki balans) hisobot;
2) konsolidasiyalashgan foyda va zarar hamda Boshqa jamlanma daromadlar tugʻrisidagi hisobot;

3) konsolidasiyalashgan kapital xarakati toʻgʻrisidagi hisobot;

4) konsolidasiyalashgan pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot.

Konsolidasiyalashgan hisobotlar bank va uning shu'ba korxonalarini hisobotlaridan iborat. Mazkur hisobot Guruh hisoboti deb ataladi.

Guruh hisoboti quyidagi tarzda tuziladi.

- bank va uning shu'ba korxonalarini bitta xisobga keltiriladi;

- guruhning oʻzaro tranzaksiyalari singishtirilib yagona holatga keltiriladi;

- Bankning nazorat qilmaydigan ulushlari ajratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi; Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot quyidagi davrlarda tuziladi: yillik 31 dekabr holatiga; Oraliq moliyaviy hisobot choraklik va yarim yillik yakunlari boʻyicha tuzilib boriladi. Yillik moliyaviy hisobotlar kelgusi yil 1 mayga qadar ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinishi shart. Eʼlon qilingan moliyaviy hisobot Markaziy bankka bir nusxa taqdim qilinadi.[2]

Konsolidasiyalashgan moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot nomoliyaviy va moliyaviy instrumentlardan iborat. Moliyaviy instrumentlar: moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar sifatida ajratiladi. Bular: Boshqa banklarga toʻlanishi lozim boʻlgan mablagʻlar, mijoz mablagʻlari, emissiya qilingan qarz qimmatli qogʻozlari, olingan kreditlar, lizing majburiyatlari, Boshqa moliyaviy majburiyatlar.

Konsolidasiyalashgan moliyaviy holat toʻgʻrisidagi hisobot quyidagicha aks ettiriladi; **AKTIVLAR va MAJBURIYATLAR.**

- Foyda va zararlar boshqa jamlanma daromad, toʻgʻrisidagi konsolidasiyalashgan hisobot.
- Kapital harakati toʻgʻrisidagi konsolidasiyalashgan hisobot
- Pul oqimlari toʻgʻrisidagi konsolidasiyalashgan jamlanma hisobotlar.

Pul mablagʻlarini va uning ekvivalentlari buxgalteriya xisobi va uni ochib berish

Pul mablagʻlari va uning ekvivalentlari BHXS 7 standart "Pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot" asosida amalga oshirilib. "Pul mablagʻlari va uning ekvivalentlari" quyidagicha hisobvaraqlarda yuritilishi mumkin:

-10100-"Kassadagi naqd pul va boshqa toʻlov hujjatlari" hisobvaraqlarida;

-10300-Bankning Markaziy bankdagi (10309 va 10397 hisobvaraqlaridan tashqari barchasi) hisobvaragʻlari;

-10500-Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar (Bunda 10501-10521 hisobvaragʻlaridagi mablagʻlar va ularga hisoblangan foizlar);

-10551-hisobvaraqlardagi shartnoma tub muddati 3 oydan kam bo‘lgan mablag‘lar va ular uchun hisoblangan, lekin undirilmagan foizlar;

-10531-va 10397 hisobvarag‘laridagi shartnoma (tub muddati) muddati uch oy va kam bo‘lgan muddatga joylashtirilgan depozitlar kiritiladi:

-Shuningdek 17400 hisobvaraqlaridagi mablag‘lar singishtirilganda, 10513 yoki 10511 hisobvarag‘lariga o‘tkazilishi va pul mablag‘lari sifatida aks ettiriladi.

Pul mablag‘lari - tasnifiga kiritish uchun bank tomonidan xech qanday jarima to‘lovizsiz 24 soat ichida egalik qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Pul mablag‘larining ekvivalentlari - 1 kundan 90 kungacha bo‘lgan boshqa moliyaviy institutlarga joylashtirilgan mablag‘lar hisoblanadi. Bunda, mablag‘lar - “ta‘minot”, “sug‘urta” yoki boshqa sarflanishi “cheklangan” tarzda bo‘lmasligi lozim. Agarda shunday holat yuzaga kelsa, Guruhga kiruvchi korxonaga o‘z hisobotida ushbu holatni aks ettirib ketishi lozim.

Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini hisobga olishda majburiyat qismidagi mablag‘lar hisobga olinishi mumkin, masalan, A bankda 10501 hisobvarag‘ida 1000 AQSh dollari miqdorida mablag‘i mavjud. Bank tomonidan A bankda vakillik xisobvarag‘ida 21006 overdraftda 100 AQSH dollari miqdorida qoldiq qolgan. Bunda, Pul mablag‘lari va uning ekvivalentlari bo‘yicha 900 AQSh dollari sifatida aks ettirilishi lozim.

Pul mablag‘lari va uning ekvivalentlari haqiqiy baho (Fair value through profit or loss (FVTPL))da yuritilmaydi, amortizasiyalashgan tannarx (Amortised cost)da yuritiladi. Sotish va qayta sotib olish shartnomalarndan tashqari, Pul mablag‘lari va uning ekvivalentlari ta‘minlanmagan hisoblanadi. Moliyaviy hisobotda pul mablag‘lari va uning ekvivalentlari quyidagicha ochib beriladi;

№	Ming O‘zbekiston so‘mida
1	Naqd pullar
2	Boshqa banklarga joylashtirilgan tub muddati uch oydan kam bo‘lgan mablag‘lar
3	Markaziy bankdagi pul mablag‘lari (majburiy zaxira mablag‘laridan tashqari)
4	Boshqa banklardagi overnayt va vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar
5	Markaziy bankdagi majburiy zaxira xisobvaraklaridagi pul mablag‘lari
6	Minus: yaratilgan zaxiralar

Pul mablag‘lari va uning ekvivalentlari quyidagicha hisobotda ochib bsrilishi mumkin:

- har bir valyuta turlari;
- joylashgan joylari bo‘yicha (O‘zbekistan, OECD va Non-OECD);
- reyting kompaniyalaridan xalqaro reytinglari asosida;
- muddatlari;
- foiz stavkalari;
- MHXS 9 standartida Stage 1,3;

- MHXS 7 (IFRS 7) standart» asosida High Grade, Standard grade. Sub-Standard grade. Impaired.

Praysvoterxauskupers MChJ tomonidan ko‘rsatilgan maslaxat xizmati asosida 2019 yil 10 noyabrda MHXS 9 standarti asosida metodika ishlab chiqilgan. Metodikaning 7-bo‘limi banklar uchun kutilayotgan zararlarni baxolash zararlarni hisoblash ko‘zda tutilgan bo‘lib. Fitch, Standard& Poors va Moodys’ xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan moliyaviy institutlarning defolt bo‘lishi foizlaridan kelib chiqib, o‘rtacha miqdori aniqlanadi va zaxiralar xisob-kitob qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki reytingi davlat uchun belgilangan reytingi asosida xisob-kitob qilinadi.

Boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar

Bankning “Boshqa banklardan va boshqa moliyaviy institutlardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lari” MXXS-9 standart» asosida aks ettirilib boriladi.

MHXS (1FRS-7) -7 standarti asosida moliyaviy hisobotda batafsil ochib beriladi.

Boshqa banklardan va boshqa moliyaviy institutlardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lari- shartnomaviy muddati 90 kundan ortiq yoki “sug‘urta”, “ta‘minot” depoziti hamda “Boshqa foydalanishi” cheklangan mablag‘lar, 10309 xisobvaragidagi Markaziy bankdagi majburiy zaxira mablag‘lari ushbu toifaga kiritiladi.

Boshqa bankdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar toifasiga quyidagilar kiradi.

- 10531, 10541, 10551 va 10397 xisobvaraqlaridagi shartnomaviy muddati 90 kundan ortiq bo‘lgan depozitlar va ular uchun 16300-xisobvaraqlarida xisoblangan foizlar;
- 10500 va 10551 xisobvaraklaridagi ishlatilishi cheklangan mablag‘lar;
- 10309 hisobvarag‘idagi Markaziy bankdagi majburiy zahira mablag‘lari va Boshqa holatlar;
- 15923 hisobvarag‘idagi mablag‘lar va boshqa hisobvaraqdagi mablag‘larni tahlil asosida ushbu toifaga o‘tkazish mumkin.

Gurux moliyaviy hisobot ilovasida “Boshqa bankdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar’ni quyidagicha tasniflaydi:

- a) Markaziy bankdagi majburiy zaxira mablag‘lari;
- b) shartnomaviy muddati 90 kundan ortiq bo‘lgan depozitlar;
- s) ishlatilishi cheklangan akkreditivga tegishli mablag‘lar;
- d) ishlatilishi cheklangan depozit mablag‘lari.

“Boshqa bankdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar’ning yuqorida “a” dan - “d” gacha bo‘lgan tasniflanishi qo‘yidagicha subtasniflanish sifatida qayta tasniflanadi:

- har bir valyuta turlari;
- joylashgan joylari bo‘yicha (O‘zbekiston, OECD va Non-OECD)
- Markaziy bank va reyting kompaniyalaridan xalqaro reytinglari asosida;
- muddatlari (kovenantalar va Boshqa talablar asosida turlicha bo‘ladi);
- foiz stavkalari;
- MHXS 9 standarti asosida Stage 1,3
- MHXS 7 (IFRS 7) standarti asosida High Grade, Standard grade, Sub-Standard grade. Impaired.

Bundan tashqari yirik konsentrasiya miqdorlari tahlil qilinadi.

MXXS-9 standarti metodologiyasi asosida kutilayotgan zaxiralar xisob-kitob qilinadi va yaratiladi.

Gurux tomonidan aktivlar SPPI testdan o'tkaziladi. Testdan muvaffaqiyatli o'tsa, amortizasiyalashgan tannarx sifatida aktiv balansda aks ettiriladi, aks xolda, rezerv xisoblanmaydi va majburiy tartibda xaqiqiy bahoda baxolanadi.

Qarz qimmatli qog'ozlariga investisiyalar

MHXS 9 (IFRS 9) standartiga asosan "Qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar"-ta'minotga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar quyidagi hisobvaraqlarda yuritilishi mumkin (agarda ta'minlangan taqdirda, kredit sifatida aks ettiriladi):

- 10700- Foyda yoki zararlar orqali xaqqoniy qiymatda baholanadigan qimmatli qog'ozlar

-10800-Boshqa umumlashgan daromad orqali xaqqoniy qiymatda baholanadigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar;

-15900-Amortizasiyalangan qiymati bo'yicha baholanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyalar va boshqa hisobvaraqlar, bunda MHXS asosida ushbu kriteriyalarga mosligi o'rganilib chiqiladi.

Tahlil va natijalar: Qarz qimmatli qog'ozlari quyidagicha o'lchanadi:

- sotishga mo'ljallangan bo'lsa, xaqiqiy qiymatda o'lchanadi hamda balansda va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks etadi (10700 hisobvaraqlaridagi aktivlar);

- so'ndirish muddatigacha saqlanadigan bo'lsa, qimmatli qog'oz amortizasiya tannarx orqali o'lchanadi (15900 hisobvaraqlaridagi aktivlar).

Qarz qimmatli qog'ozlari o'lchangandan so'ng quyidagicha kategoriyalarga ajratiladi:

- Xukumat obligatsiyalari; - Korporativ obligatsiyalar.

Aktivni xaqiqiy baxosini aniqlashda quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

- aktivning foiz va asosiy summasining to'lovlarini xisobga olib FV aniklanadi, ya'ni kelajakda qancha pul oqimlarini olib kelishi mumkin;

- diskontlaydigan foiz stavka, ya'ni bozor foiz stavkasi aniklanadi;

-xozirgi kundagi qiymatini diskontlanadigan foiz stavkaga ko'paytarish orqali aniqlanadi.

Misol tariqasida 10723 hisobvarag'idagi 21 mlrd sumlik 11% yillik stavkada jalb qilingan Milliy bank obligatsiyasini haqiqiy bahosida baholaymiz (ming so'mda):

Pul oqimlari yillarda Diskont faktor-16% Diskontlangan pul oqimlari

01/01/2020 -21.000.000 - 1 00 21,000,000

17/03/2020 459.123 0.21 0.97 445,152

15/09/2020 22,099.479 0.71 0.90 19,898,483

jami 1,558,603 NPV 656,366.....

Biz buni MHXS bo'yicha 10723 hisobvarag'iga qayta tasnifladik va obligatsiyaning sof bahosi 656 mln so'mga biz kutgandan ko'ra kamroq ekanligiga guvoh bo'ldik. Bozor foiz stavkasini olishda qayta moliyalash stavkasini asos qildik. Agar bozor stavkasidan foydalanmoqchi bo'lsak, Markaziy bank tomonidan e'lon qilinayotgan UZIBOR yoki UZIBIDdan foydalanishimiz mumkin.

Ushbu moliyaviy hisbotda xalqaro standartlardan yana quyidagi qismlari ham aks etadi;

Ulushli qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investisiyalar; Berilgan kreditlar va lizinglar; Foydalanish xuquqidagi aktivlar va lizing majburiyatlari; Asosiy vositalar xisobi va uni ochib berish; Nomoddiy aktivlar xisobi va uni ochib berish; Birgalikdagi

korxonalarga investisiyalari; Investision mulklar xisobi va uni ochib berish; Boshqa nomoliyaviy aktivlar; Boshqa moliyaviy aktivlar; Emmissiya qilingan qarz qimmatli qog'ozlari; Hosilaviy moliyaviy vositalar xisobi; Mijozlar hisobvaraqlari hisobi va hisoboti; Subordinar qarzarlar; Olingan qarzarlar; Boshqa banklar va kredit tashkilotlariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar; Boshqa majburiyatlar; Bank xususiy kapitali; Foizli daromadlar; Foizli xarajatlar; Komission daromadlar; Komission xarajatlar; Xorijiy valyuta amaliyotlari hisobi; Boshqa amaliyotlardan daromadlar; Ma'muriy boshqaruv va boshqa operasion xarajatlar; Aloqador shaxslar va ular bilan bogliq amaliyotlarning moliyaviy xisobotda ochib berilishi; Bank kafolati, akkreditivlar va bankning kredit berish majburiyatlari hisobi; Hisobot davridan keyingi davrdagi bo'lgan xodisalar. BHXS 37 standarti zaxiralar; Moliyaviy aktiv va majburiyatlarni xakikiy bahoda baholanishi; Konsolidasiya MHXS 10 standarti asosida); Guruh tarkibidagi lizing kompaniyalari va NV Capital MChJ uchun buxgalteriya xisobi; HamkorSugurta MChJ buxgalteriya hisobi; Foyda soligi; kabi aridan foydalaniladi.[3]

Xulosa va takliflar; Mazkur yuqoridagi hisobotlar tartibga solinmagan masalarlar amaldagi qonun qonunchilik xujjatlari bilan amalga oshiriladi. Xisobot loyihasida qayd etilgan ma'lumotlarda qonun xujjatlariga zid normalar kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonuni, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, "Moliyaviy hisobotning halqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 24.02.2020 yildagi PQ-4611.
2. Adliya vazirligida 2021 yil 27 noyabrda 3337-son bilan ro'yxatga olingan Tijorat banklarining xisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom" va tijorat banklarini xisob siyosati va MHXS bo'yicha ichki nizomlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib (keyingi o'rinlarda -Bank) da xisob yuritish qoidalarini belgilaydi.
3. CHEKI ATB Hamkorbank Xisob siyosati 2022y.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

